



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№3

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2025



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 3-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров
PhD, доцент И.М.Пардаева
PhD, И.Ш.Эрназарова

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

И.Б.Маттиев – СамИСИ профессори, DSc

КИЧИК БИЗНЕС ВА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК	
Гулнора Мардиевна Шадиева Малый бизнес как фактор социально-экономического развития Узбекистана	155
Laziz Niyozovich Xudoyorov Qashqadaryo viloyatida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari	160
МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ	
Dilafroz Saidbaxromovna Saidaxmedova Qurilish korxonalarida sifat menejmenti tizimini samarali joriy etish: tahlil va takliflar	164
Ибодулла Хасанович Ибрагимов Персонализация как драйвер повышения результативности транзакционных маркетинговых кампаний	167
Baxtiyor Nabijanovich Dedajanov Tovar-moddiy zahiralarni erkin talab sharoitida boshqarish – korxonalar operatsion faoliyatining samaradorligini oshirish garovi	171
Xilola Nematovna Ochilova “Kompensatsiya va imtiyozlar” fanining mazmuni, mohiyati va ahamiyati	175
Ирода Аминжонова Умурзакова Совершенствование организационно-экономических механизмов маркетинга в условиях цифровой трансформации сферы услуг	180
Botir Hayat Muradov Togʻ-kon sanoati korxonalarining yashil iqtisodiyotga oʻtish muammolari va yechimlari	183
Zuhriddin Nuriddinjon oʻgʻli Salohiddinov Iqtisodiy jarayonlarda resurslardan foydalanish va taqsimot modellari	186
ИНВЕСТИЦИЯ	
Ойдин Давроновна Хамракулова Инвестиции и становление инновационного пути развития экономики Узбекистана	192
БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ	
Bobur Farxodovich Boronov, Shahboz Shodi oʻgʻli Rajaboyev Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlarining tavsifi va buxgalteriya hisobi	197
Otabek Olimjonovich Sobirov Boshqaruv hisobini tashkil etishning nazariy asoslari	202
Xurshidjon Nazrullo oʻgʻli Abdullayev Ekologik audit oʻtkazishning usullari va tartib-qoidalari	205
Marifat Umarovna Xudoyberdiyeva Chakana savdo aylanmasining mohiyati va rivojlanishi	211
ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА	
Shaxnoza Ergashevna Samandarova Boshlangʻich va umumiy oʻrta taʼlim matematika taʼlimida uzviylik muammosining nazariy asoslari	214
ЭЪТИБОРГА МОЛИК МАСАЛАЛАР	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Самарқанд ҳаётидаги олти муаммо, олти таклиф ва олти натижа	217

БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ

Bobur Farxodovich Boronov – SamISI professori v.b., i.f.d. (DSc)

Shahboz Shodi o‘g‘li Rajaboyev – SamISI mustaqil tadqiqotchisi

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI XIZMATLARINING TAVSIFI VA BUXGALTERIYA HISOBI OBYEKTI SIFATIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. Maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlarining (AKTX) iqtisodiy mazmuni, ularning buxgalteriya hisobi obyekt sifatidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. AKTXning milliy iqtisodiyotda samaradorlikni oshirishdagi roli, xalqaro tajriba asosida ularni hisob va hisobotda to‘g‘ri aks ettirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, korxonalar faoliyatida AKTX daromadlari va xarajatlarini to‘g‘ri tasniflash, ularni nazorat qilish va moliyaviy natijalarni shakllantirishdagi amaliy jihatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlari, buxgalteriya hisobi, daromad va xarajatlar hisobi, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari.

Kirish. Respublikamizda bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni beqiyos. Ular iqtisodiy o‘rni tezlashtirish, yangi ish o‘rinlarini ochish va biznes samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Internet, mobil aloqa, bulutli texnologiyalar va boshqa IT xizmatlari orqali ma‘lumot almashinuvi tezlashadi, tranzaksiya xarajatlari kamayadi va innovatsiyalar rivojlanadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»¹gi PF-60-son [Farmoniga](#) muvofiq, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilab olindi. Jumladan:

* aholi yashash maskanlarini keng polosali mobil aloqa tarmog‘i bilan qamrab olish darajasini 98 foizga, xalqaro ahamiyatga ega avtomobil yo‘llari bo‘ylab yuqori tezlikdagi mobil internet qamrovini 60 foizga yetkazish;

40 ming km optik tolali aloqa liniyalarini qurish hamda qo‘shimcha 800 ming xonadonni yuqori tezlikdagi internetga ulash imkoniyatini yaratish orqali optik tolali aloqa qamrovini 80 foizga yetkazish;

elektron davlat xizmatlari ko‘rsatilishiga xususiy sektorni jalb qilish orqali foydalanuvchilar sonini 2 barobar oshirib, 4 millionga yetkazish;

hududlarda yoshlarning zarur ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga va ularni kafolatlangan buyurtmalar bilan ta‘minlashga xizmat qiladigan markazlarni yaratish orqali IT-xizmatlar eksporti hajmini 100 mln dollarga yetkazish;

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlarining iqtisodiyotga ta‘sirini o‘rganish davomida bir nechta natijalarga erishdik va ularni quyida jadval ko‘rinishida keltiramiz (1-jadval):

1-jadval

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlarining milliy iqtisodiyotga ta‘siri²

Xizmat turi	Ta‘sir ko‘rsatkichlari	Misollar
Internet	Yalpi ichki mahsulot o‘sishi, investitsiyalarning ko‘payishi	Elektron tijorat, masofaviy ta‘lim
Mobil aloqa	Biznes samaradorligi, aloqa qulayligi	Mobil banking, telemeditsina
Bulutli texnologiyalar	Xarajatlarning kamayishi, moslashuvchanlik	Ma‘lumotlarni saqlash, dasturiy ta‘minotni yetkazib berish

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. 2022 yil 28 yanvar. PF-60-son.

² Muallif ishlanmasi.

Raqamli iqtisodiyotning o‘sishi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlariga bo‘lgan talabni yanada oshiradi. Korxonalar raqobatbardosh bo‘lish va mijozlar ehtiyojlarini qondirish uchun doimiy ravishda yangi texnologiyalarni joriy etishga majbur bo‘lmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, AT-mutaxassislariga, dasturchilarga va raqamli marketing bo‘yicha mutaxassislariga bo‘lgan ehtiyojning ortishiga olib keladi.

Hukumat axborot kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlarining rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun qulay muhit yaratishi kerak. Bu, keng polosali internet infratuzilmasini rivojlantirish, raqamli savodxonlikni oshirish va AT-sohasida tadbirkorlikni rag‘batlantirishni o‘z ichiga oladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlarining tavsifi va buxgalteriya hisobi obyekt sifatidagi ahamiyatini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot ishida ilmiy abstraksionalash, statistik tahlil, iqtisodiy tahlil, monografik kuzatish, qiyoslash, induksiya va deduksiya kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlari baholanishini xalqaro amaliyotlar asosida olib borish muhimdir. Misol uchun, xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga ko‘ra, bu xizmatlardan keladigan natijalar ikki guruhga ajratiladi: birinchisi — asosiy faoliyat natijalari; ikkinchisi — asosiy daromadlardan tashqarida, umumiy moliyaviy holatni aniqroq ko‘rsatadigan natijalar¹.

O‘zbekistonda esa buxgalteriya hisobi milliy me‘yoriy hujjatlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlarini hisobga olish yanada batafsil tarzda ifodalangan. Masalan, “Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati” deb nomlangan normativda (1-sonli BHMS), xizmatlardan olinadigan daromad, sarflangan resurslar qiymati, qo‘shimcha operatsion xarajatlar, shuningdek, qo‘llab-quvvatlash hamda moliyaviy asosdagi xarajatlar kabi mezonlar alohida ko‘rib chiqiladi².

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlari tavsifi va buxgalteriya hisobi obyekt sifatida tavsif berish, hisobga olish prinsiplarini belgilash o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot kommunikatsiya xizmatlariga olimlarimiz bergan ta’riflarni o‘rganamiz.

S.S.G‘ulomov AKTXni "axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlari iqtisodiyotda axborotni tovar sifatida baholash va tijorat asosida foydalanish vositasi" deb ta’riflaydi. Unga ko‘ra, AKTX raqamli iqtisodiyotda yalpi raqamli mahsulotni oshirishga xizmat qiladi, ya’ni axborot texnologiyalari yordamida yaratilgan foydali axborot, tovar va xizmatlarning bozor qiymatini hisoblashni ta’minlaydi. Shuningdek, telekommunikatsiya xizmatlarini "operator va provayderning signallar va axborotni telekommunikatsiya tarmoqlari orqali qabul qilish, uzatish va qayta ishlash faoliyati mahsuli"³ deb ta’riflaydi.

Tadqiqotchi olimlar Nurmatova M.M. va Sulaymonova B.A.lar axborot kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlarini ta’lim sohasida qo‘llash orqali qanday yutuqlarga erishish mumkinligi haqida o‘z ishlarida aytib o‘tgan va ta’riflarini bergan. “Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlari orqali chet tillarini o‘qitish usullari va vositalari ijtimoiy media va raqamli platformalar orqali ingliz tilini o‘qitishda qo‘llaniladigan xizmatlar” deb ta’riflaydi, ya’ni AKTX masofaviy platformalar va multimedia resurslari orqali ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Muzaffarova AKTX ni "tashkilot va korxonalar boshqaruv tizimida qo‘llaniladigan zamonaviy xizmatlar" deb ta’riflaydi, ya’ni AKTX iqtisodiyotda ma’lumot boshqaruvi va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Xorijiy olimlar ta’riflari ko‘rib chiqildi:

Shannon ma’lumotni miqdoriy o‘lchash va uzatish jarayonini ta’riflagan. Unga ko‘ra, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlari – bu ma’lumotni uzatish kanallari orqali shovqin va yo‘qotishlarni minimallashtirib, samarali yetkazib berish tizimi. Bu ta’rif axborot-

¹ IAS 1 “Presentation of Financial Statements”, xalqaro moliyaviy hisobotlarning taqdimoti va boshqa umumiy daromadlar.

² O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (1-sonli BHMS) “Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati”. 06.08.2024 y.

³ G‘ulomov, S.S. (tahriri ostida). Axborot tizimlari va texnologiyalari. Toshkent: “Sharq”, 2000; shuningdek Informatika va axborot texnologiyalari (Oliy ta’lim uchun darslik), Toshkent, 2010.

kommunikatsiya texnologiyalarining asosiy nazariy poydevori hisoblanadi, chunki u ma'lumot uzatishning matematik modellarini ishlab chiqqan.

Albert Borgmann axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qurilma, dasturiy ta'minot va aloqa tarmoqlari kombinatsiyasi deb ta'riflaydi, ular ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'sir qiladi. Bu ta'rif axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlarini texnologik va ijtimoiy kontekstda ko'rsatadi.

Igwe, Kingsley N. “axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qurilma, dasturiy ta'minot, tarmoq va media orqali ma'lumot to'plash, qayta ishlash, saqlash va tarqatish uchun qo'llaniladigan texnologiyalar”¹ deb ta'riflaydi. Bu ta'rif axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlarini ta'lim va kutubxona xizmatlarida qo'llashga qaratilgan.

Sujit Sarkar “axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ma'lumot uzatish, saqlash, yaratish, almashish yoki tarqatish uchun qo'llaniladigan turli texnologik vositalar va resurslar”² deb ta'riflaydi.

N. Tamilselvan, N. Sivakumar va R. Sevukan Ular axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini telekommunikatsiya, efir media, audio va video qayta ishlash, uzatish va tarmoq nazorati funksiyalari deb ta'riflaydilar. Ular axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini zamonaviy texnologiyalar orqali ma'lumot tahlili, saqlash, qayta ishlash va aloqa uchun ishlatiladigan vositalar deb ko'rsatadilar.

Mingxing Shao axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini "inklyuziv atama, barcha aloqa uskunalari yoki dasturiy ta'minotni qamrab oluvchi: masalan, radio, televidenie, mobil telefon, kompyuter, tarmoq uskunalari va dasturiy ta'minoti, sun'iy yo'ldosh tizimi, shuningdek, video konferensiya va masofaviy ta'lim kabi turli xizmatlar va dasturiy ta'minot”³ deb ta'riflaydi. Bu ta'rif axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlarini sog'liq va iqtisodiy kontekstda ko'rsatadi.

Fernandes-Portillo axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini "iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi texnologiyalar" deb ta'riflaydi.

Yuqoridagi olimlar va me'yoriy-normativ hujjatlardagi axborot kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlariga bergan ta'rif nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Lekin “axborot kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlari” tushunchasiga berilgan yagona ta'rif mavjud emas. Keltirilgan ta'riflar ham bizning nazarimizda axborot kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlarining barcha jihatlarini tavsiflamaydi. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlarini tavsiflashda buxgalteriya hisobining asosiy obyektini hisoblangan daromad va xarajatlardan shakllanishi, daromad va xarajatlarni muvofiqlik prinsipiga asosan bir-biriga taqqoslanishi natijasida daromad xarajatdan katta bo'lsa foyda yuzaga kelishi, daromad xarajatdan kichik bo'lsa zarar yuzaga kelishi, foyda xususiy kapitalni ko'paytiruvchi, zarar esa xususiy kapitalni kamaytiruvchi omil ekanligini, foyda nafaqat korxonaga yoki investor uchun balki jamiyat uchun ham naf keltiruvchi, zarar o'z nomi bilan korxonaga va investor uchun ham jamiyat uchun ham resurslarni kamaytiruvchi omil ekanligini inobatga olish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Tadqiqotlar asosida axborot kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlariga quyidagicha ta'rifni keltiramiz:

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlari (AKTX) – zamonaviy raqamli infratuzilmani shakllantirish, ma'lumotlarni qayta ishlash, saqlash, uzatish va boshqarish jarayonlarini ta'minlovchi faoliyat turlarini o'z ichiga olgan tizimlar majmuasi bo'lib, telekommunikatsiya, internet, AT infratuzilmasi, multimedia va shunga o'xshash sohalarni qamrab oladi. AKTX resurslarni samarali boshqarish, optimal tizimlar yaratishga asoslanib, xavfsizlik, barqarorlik va ishonchlik standartlariga muvofiq rivojlanadi, shu orqali jamiyat va iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasini qo'llab-quvvatlaydi.

Tahlil va natijalar. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlari (AKTX) ta'rifini

¹ Igwe, Kingsley N. The Roles of Information and Communication Technologies in Education: Review and Perspectives. International Journal of Research in Education, 2012 y

² Sujit Sarkar “ICT in Developing Countries: A Systematic Review...,” International Journal of Information Management, 2023

³ Shao, M. “Information and Communication Technology: Definition, Components and Applications,” Journal of Engineering Research and Reports, 2021.

batafsil tushuntirish uchun uni quyidagi jihatlariga ajratib ko‘rib chiqamiz. Asosiy ta’rifga ko‘ra, AKTX zamonaviy raqamli infratuzilma orqali ma’lumotlarni yaratish, uzatish, qayta ishlash, saqlash va boshqarish jarayonlarini ta’minlovchi faoliyat turlarini bildiradi.

Bu jarayonlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ma’lumotlar (tekst, rasm, video yoki audio) tsiklik tarzda boshqariladi. Masalan, yaratish bosqichida sensorlar yoki kameralar yordamida ma’lumot shakllantiriladi, uzatishda simli yoki simsiz tarmoqlar orqali masofaga yuboriladi, qayta ishlashda SI texnologiyalari bilan tahlil qilinadi, saqlashda bulutli serverlarda uzoq muddat himoya qilinadi, boshqarishda esa kirish huquqlari nazorat qilinadi. Misol uchun, smartfon orqali surat olish va uni Instagramda tahrirlash ma’lumot yaratish va qayta ishlashni ko‘rsatadi, shuningdek, elektron pochta orqali fayl yuborish va Google Drive’da saqlash uzatish va saqlash jarayonlarini ifodalaydi.

AKTX turli yo‘nalishlarni qamrab oladi, jumladan telekommunikatsiya, internet, AT infratuzilmasi, multimedia va bulutli texnologiyalarni. Telekommunikatsiya ovoz, video va ma’lumot uzatish tarmoqlarini o‘z ichiga oladi, internet esa global tarmoq va onlayn xizmatlarni ta’minlaydi, AT infratuzilmasi serverlar, dasturiy ta’minot va apparatlarni, multimedia audio-video kontentni, bulutli texnologiyalar esa masofaviy saqlash va ishlashni qamrab oladi. Bu yo‘nalishlar integratsiyalangan bo‘lib, global bozorda trillion dollarlik qiymatga ega. O‘zbekistonda Uztelecom yoki Ucell orqali 5G tarmoqdan foydalanish, masalan Zoom orqali masofaviy uchrashuvlar telekommunikatsiyaga misol bo‘ladi. Shuningdek, elektron davlat xizmatlari (E-Gov) orqali soliq deklaratsiyasini onlayn topshirish internet va AT infratuzilmasini, Netflix orqali filmlar ko‘rish multimediyaga, Amazon Web Services orqali ma’lumot saqlash esa bulutli texnologiyalarga oid.

AKTXning ta’siri iqtisodiyot, ta’lim va ijtimoiy sohalarda innovatsiyalarni jadallashtirishda namoyon bo‘ladi, chunki u masofaviy aloqa, axborot almashinuvi va resurslarni optimallashtirish imkoniyatlarini yaratadi. Iqtisodiyotda biznes jarayonlarini tezlashtirib, savdo va moliyani raqamlashtiradi, ta’limda onlayn o‘qitish va resurslarga kirishni osonlashtiradi, ijtimoiy sohalarda esa aloqa va jamiyat tashkil etishni ta’minlaydi. Global miqyosda ICT sektori Yalpi Ichki Mahsulotning 6-10 foizini tashkil etadi va millionlab ish o‘rinlarini yaratadi. O‘zbekistonda elektron tijorat platformalari (OLX yoki Uzum Market) orqali tovar sotish savdoni 20-30 foizga oshiradi va logistika xarajatlarini kamaytiradi. Pandemiya vaqtida Coursera orqali dars o‘tish ta’limdagi raqamli kutubxonalarga misol, Telegram guruhlarida esa ijtimoiy yordam loyihalarida axborot almashinuvi uchun ishlatiladi. Optimallashtirishda AI orqali transportni boshqarish, masalan Toshkentdagi CCTV tizimlari, resurslarni samarali taqsimlaydi.

AKTX rivojlanishi xavfsizlik, barqarorlik va samaradorlik talablariga mos ravishda amalga oshiriladi. Xavfsizlik ma’lumotlar o‘g‘irlanishidan himoya qilishni (shifrlash va firewall), barqarorlik energiya tejamkor texnologiyalarni (yashil AT), samaradorlik esa jarayonlarni avtomatlashtirishni nazarda tutadi. Bu talablar global standartlar (GDPR) va milliy qonunlar (O‘zbekistonda Kiberxavfsizlik qonuni) bilan tartibga solinadi. Banklarda VPN va biometrik autentifikatsiya (Click yoki Payme) kiberhujumlardan himoya qiladi, Google Cloud quyosh energiyasidan foydalanish ekologik ta’sirni kamaytiradi, adliya vazirligida AI orqali hujjat tahlili vaqtini 50 foizga qisqartiradi. Natijada, AKTX zamonaviy hayotning asosi bo‘lib, iqtisodiy o‘shishni (raqamli iqtisodiyot YIMning 15-25 foizini beradi) va innovatsiyalarni ta’minlaydi, ammo xavfsizlik va barqarorlik doimiy e’tiborni talab etadi.

- Mobil tarmoq xizmatlari — ovozli aloqa, SMS va ma’lumotlar uzatishni ta’minlaydigan texnologiyalarni o‘z ichiga oladi.

Mobil tarmoq xizmatlarining iqtisodiy o‘shishga qo‘shgan hissasi:

- ❖ Yangi ish o‘rinlarini yaratish: Mobil aloqa infratuzilmasi rivojlanishi, mobil tarmoqlarni qurish va texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha yuz minglab ish o‘rinlari yaratiladi. Texnologiyalarni rivojlantirish, ilova ishlab chiqaruvchilar, xizmat ko‘rsatuvchi provayderlar va boshqa bog‘liq sohalarda bandlik darajasining oshishi.

- ❖ Samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirish: Masofaviy aloqa va hamkorlik, mobil texnologiyalar korxonalar va tashkilotlarga masofaviy muloqot qilish imkonini beradi, bu esa operatsion xarajatlarni kamaytiradi. Yangi bozorlar, mobil xizmatlar kichik va o‘rta korxonalar uchun yangi mijozlarga erishish va xizmatlarni kengaytirish imkoniyatini beradi.

❖ Yangi xizmat va mahsulotlarning yaratilishi: Mobil to‘lovlar, mobil banking va to‘lov tizimlari iqtisodiyotda moliyaviy inkluzivlikni oshiradi, ayniqsa rivojlanayotgan davlatlarda. Innovatsion ilovalar, mobil platformalarga asoslangan innovatsiyalar (masalan, transport ilovalari, sog‘liqni saqlash xizmatlari) yangi xizmat yo‘nalishlarini rivojlantiradi.

❖ Aloqa infratuzilmasining modernizatsiyasi: 5G texnologiyalari, yangi avlod mobil tarmoqlari tezkor aloqa va real vaqt rejimida ishlash imkoniyatlarini oshiradi, bu esa aqlli shaharlar, IoT (Internet of Things) kabi ilg‘or texnologiyalarning rivojlanishiga zamin yaratadi. Qishloq hududlarini rivojlantirish, mobil tarmoq xizmatlari rivojlanmagan hududlarda aloqa va internet imkoniyatlarini ta‘minlab, iqtisodiy tengsizlikni kamaytiradi.

❖ Soliq tushumlarini oshirish: Operatorlarning iqtisodiy hissasi, mobil operatorlar va xizmat provayderlari davlat byudjetiga katta miqdorda soliq tushumlari keltiradi. Savdo va xizmatlar hajmining oshishi, mobil tarmoqlarning kengayishi orqali iqtisodiyotda umumiy faollik oshadi.

Mobil tarmoq xizmatlari iqtisodiy o‘shishni qo‘llab-quvvatlovchi muhim omillardan biridir. Ular yangi ish o‘rinlari yaratish, texnologik innovatsiyalarni joriy etish va moliyaviy inkluzivlikni oshirish orqali iqtisodiyotda sezilarli ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Xususan, 5G texnologiyalarining rivoji yaqin kelajakda iqtisodiyotni yanada tezkor va samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Mobil tarmoq xizmatlari innovatsion imkoniyatlarni kengaytirish orqali jamiyat va iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, IoT, moliyaviy texnologiyalar va VR/AR kabi yo‘nalishlarda yangi texnologiyalarni joriy etish natijasida global miqyosdagi o‘zgarishlarga zamin yaratiladi. Mobil xizmatlar kelajak iqtisodiyotining asosiy drayveri bo‘lib qoladi.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tadqiqotlar davomida quyidagi ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

Birinchidan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlarini (AKTX) ilmiy asoslangan shaklda guruhlariga ajratish va ularning tasnifini belgilash raqamli iqtisodiyotda moliyaviy natijalarni to‘g‘ri shakllantirishga xizmat qiladi hamda AKTX hisobini samarali tashkil etish va yuritishga asos bo‘ladi, deb hisoblaymiz.

Ikkinchidan, AKTXni belgilangan tartib-qoidalar asosida bir xil shaklda tasniflash va ularning tarkibiy qismlarini ilmiy ishlab chiqilgan mezonlarga tayangan holda belgilash sohada axborotlarni tezkor qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa, o‘z navbatida, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, korxonalarda AKTX bilan bog‘liq xarajatlarni asosiy faoliyat xarajatlaridan ajratish orqali raqamli xizmatlar tannarxini aniqlash hamda ularni hisob va hisobotda to‘g‘ri aks ettirish zarur. Bu xarajatlar tarkibiga raqamli platformalar, telekommunikatsiya infratuzilmalari va dasturiy ta‘minotdan foydalanish bilan bog‘liq xarajatlarni kiritish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

To‘rtinchidan, bugungi kunda korxonalar nafaqat asosiy, balki qo‘shimcha raqamli xizmat turlari bilan ham shug‘ullanib, turli ko‘rinishdagi daromadlar oluvchi subyektga aylanmoqda. Tadqiqotlar davomida ushbu daromadlar ikki guruhga ajratildi: asosiy faoliyatdan kelib chiqadigan AKTX daromadlari va qo‘shimcha xizmatlardan olingan daromadlar. Xarajatlar ham xuddi shunday yo‘nalishlarda tasniflandi va ular xalqaro standartlarga muvofiqlashtirildi.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqilgan ushbu tasnifiy asoslar raqamli iqtisodiyot sharoitida AKTX hisobini va hisobotini xalqaro standartlar talablari asosida yuritishda muhim metodologik asos sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori. 1999-yil 5-fevral. 54-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlar uchun teng sharoitlar va adolatli raqobat muhitini ta‘minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. 2024-yil 27-dekar. PF-229.
3. Rajaboyev, S. S., & Hamidova, P. M. (2025). *Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot-kommunikatsiya xizmatlaridan foydalanish*. Iqtisodiyot va ta‘lim.

4. G‘ulomov, S.S. (tahrir.) (2010). *Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari*. Toshkent: Davlat Iqtisodiyot Universiteti.
5. Rajaboyev Sh. Sh. AXBOROT KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINING TAVSIFI // Экономика и социум. 2025. №4-1 (131). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/axborot-kommunikatsiya-xizmatlarining-tavsifi> (дата обращения: 18.09.2025).
6. Kупенова, Z., Ваймуханова, S., Нурғалиева, G., Zhunisova, G., & Nurmukhan, A. (2020). *Digital economy and its role in accounting*. E3S Web of Conferences.
7. Боронов Б.Ф., Ахмедов М.А., and Худайназарова Д.Г.. "Корхоналарда даромадлар ва харажатларни бошқа умумлашган даромадлар тўғрисидаги ҳисоботда акс эттириш масалалари" Экономика и социум, no. 3-2 (118), 2024, pp. 547-556.

<p>Б.Боронов, Ш.Раджаббоев</p> <p>Значение и характеристика услуг информационно-коммуникационных технологий как объекта бухгалтерского учета в условиях цифровой экономики</p> <p>Аннотация. В статье анализируется экономическое содержание услуг информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в условиях цифровой экономики, их роль и значение как объекта бухгалтерского учета. Рассматривается роль ИКТ в повышении эффективности национальной экономики, а также пути правильного отражения их в учете и отчетности на основе международного опыта. Кроме того, освещены практические аспекты правильной классификации доходов и расходов по ИКТ в деятельности предприятий, их контроля и формирования финансовых результатов.</p> <p>Ключевые слова: цифровая экономика, услуги информационно-коммуникационных технологий, бухгалтерский учет, доходы и расходы, международные стандарты финансовых отчетностей.</p>	<p>B.Boronov, Sh.Rajaboev</p> <p>Description and significance of information and communication technology services as an object of accounting in the context of the digital economy</p> <p>Abstract. The article analyzes the economic essence of information and communication technology (ICT) services in the context of the digital economy, as well as their role and importance as an object of accounting. It examines the contribution of ICT to enhancing the efficiency of the national economy and the ways of properly reflecting them in accounting and reporting based on international experience. In addition, the paper highlights the practical aspects of correctly classifying ICT-related revenues and expenses in enterprise activities, their control, and the formation of financial results.</p> <p>Keywords: digital economy, information and communication technology services, accounting, revenues and expenses, international financial reporting standards.</p>
---	--

Otabek Olimjonovich Sobirov – PhD, Namangan davlat texnika universiteti, Buxgalteriya hisobi kafedrasida dotsenti

BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. Maqolada xo‘jalik yurituvchi subyektlarda boshqaruv hisobini tashkil etishning nazariy asoslari tadqiq etilgan bo‘lib, bu borada xorijiy va mamlakatimizda ilmiy izlanishlar olib borgan iqtisodchi olimlarni tadqiqotlari va yondashuvlari ko‘rib chiqilgan va tahlil qilingan. Shuningdek boshqaruv hisobining konseptual tarkibi borasidagi jahon va respublikamizdagi olimlarning fikrlarini tanqidiy tahlil etish natijasida uni tarkibiy qismlarga ajratishda turli xildagi fikrlar va mulohazalar o‘rganilgan va ularni yechimiga qaratilgan xulosa va ilmiy takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: boshqaruv hisobi, xarajatlar, ishlab chiqarish, nazorat, hisobotlar, moliyaviy hisob, javobgarlik markazlari, eksport, mahsulot, tannarx hisoblash.

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektni samarali boshqarish ko‘p jihatdan uning faoliyati, mahsulot (ish, xizmat)larining turlari, bo‘linmalari bo‘yicha natijaviy ma‘lumotlarga to‘liq erishish, ularni chuqur tadqiq etish va zaruriy chora-tadbirlarni qo‘llashga bog‘liqdir. Bunda eng asosiy o‘rinni xo‘jalik yurituvchi subyektning faoliyat turlari bo‘yicha natijaviy axborotlariga erishish egallaydi. Boshqaruv hisobining tashkiliy va uslubiy asoslarini ishlab chiqishda eng asosiy nazariy masala bo‘lib uning konseptual negizlarini tadqiq

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

10.09.2025 йилда теришга берилди. 26.09.2025 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84 $\frac{1}{8}$. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0054А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.